



**JAHON HAMDA O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING
PEDAGOGIKADA HAMKORLIK NAZARIYASIGA OID YONDASHUVLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11185486>

Nishonova Aziza Mirzaxmadovna

NAMDU tayanch- doktoranti

ANNATATSIYA

Mazkur maqolada jahon hamda o' rta osiyo mutafakkirlarining pedagogikada hamkorlik nazariyasiga oid yondashuvlari o' rganilganligi qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar

ta'lim-tarbiya, fikr, qarash, hamkorlik, kreativlik, komponent, ijtimoiy zarurat, ajdod, omil, muvofiqlashish, sherikchilik, muvofiqlashish, kitob, etnik mansublik, ijtimoiy tabaqa.

**МЫСЛИТЕЛЕЙ МИРА И ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ К ТЕОРИИ
КООПЕРАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ**

Азиза Нишнонова Mirzaxmadovna

Докторант НАМДУ

АННОТАЦИЯ

В данной статье кратко освещены подходы мыслителей мира и Центральной Азии к теории кооперации в педагогике.

Ключевые слова

образование, мысль, видение, сотрудничество, творчество, компонент, социальная необходимость, предок, фактор, координация, партнёрство, координация, книга, этническая принадлежность, социальный класс.

**APPROACHES OF THINKERS OF THE WORLD AND CENTRAL ASIA
TO THE THEORY OF COOPERATION IN PEDAGOGY**

Aziza Nishonova Mirzaxmadovna

Doctoral student NAMDU

ANNOTATION

This article briefly highlights the approaches of thinkers of the world and Central Asia to the theory of cooperation in pedagogy



Key words

education, thought, vision, cooperation, creativity, component, social necessity, ancestor, factor, coordination, partnership, coordination, book, ethnicity, social class.

Buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur uy-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Ushbu fikrlar barcha tarbiyalanuvchilarning tarbiyachi bilan o'zaro xamkorlikka kirishishiga xam qaratilgan. Bu yondoshishlar pedagogik xamkorlik nazariyasiga oid yondashuvlardir. Shoir nazarida muxabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'vor axloqiy kuch. U o'zida olijanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlikni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilmu hikmatiga oshno qilingan ("Qilding ani orifi ul ma'rifat"), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur'on oyatlariga ishora etib, inson ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

"Karramno" – keldi manoqib anga

"Ahsani taqvim" – munosib anga.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydali ishlari bilan qadrli. Boshqalarga ziyon yetkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to'g'ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a'zosidan – shohmi, gadomi – inson nomiga munosib bo'lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezoni – bu xalq g'am tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy himmati baland, hojatbaror, adolatpanoh insonlarni sharaflyadi. Ma'lumki, inson allaqanday mavhum tushuncha emas. Inson o'z kasbu kori, jamiyatda egallagan mavqei bilan konkret shaxsdir.

Bobokalonlarimiz hamda o'rta osiyo mutafakkirlarining fikrlari va g'oyalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, hamkorlik pedagogikasi asosida umumiy o'rta ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish ta'lim muassasalari amaliyotida muayyan o'zgarishlar kiritishga yo'naltirilgan faoliyat



bo'lib, uning samarasi umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etilishi, ta'lim mazmunining boyitilishi va sifatining yaxshilanishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasining oshganligi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaliklari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro faol hamkorlikning qaror topganligi bilan belgilanadi.

Jahon pedagogikasida hamkorlik nazariyasiga oid yondashuvlardan foydalanish masalasida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, V.Arshinov, M.Boguslavskiy, V.Budanov, V.Vinenko, L.Zorina, V.Ignatova, S.Kapitsa, Ye.Knyazeva, G.Malineskiy, V.Matkin, L.Novikova kabi tadqiqotlarida hamkorlikda o'qitishning afzalliklari, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini tashkil etishning yetakchi g'oyalari o'z aksini topgan.

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("cooperativ learning") an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaolligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro mas'uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi.

O'zbekistonlik olimlardan N.Azizxodjayeva, J.Yo'ldoshev, R.Safarova, B.Xodjayev, Sh.Abdullayeva, N.Dilova singari olimlar tomonidan hamkorlik pedagogikasi, o'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari yoritib berilgan.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili (N.Dejnikova, I.Pervin, V.Dyachenko, D.Djonson, R.Djonson, R.Slavin, va boshqalar) shuni ko'rsatdiki, hamkorlik guruhviy va jamoaviy ish shakllarini tashkil etishda subyektlarning o'zaro birgalikdagi faoliyatda qo'yilgan maqsadga samarali erishishini ta'minlaydi. Bunday samaradorlik natijasida hamkorlar o'zaro yordam, faol hamkorlik tamoyillari asosida o'quv-bilish faoliyatida o'zaro birgalikda harakatlanishadi. Shuning uchun hamkorlik o'zaro javobgarlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, o'zaro hurmat, o'zaro samimiylikni talab etadi. Faol hamkorlik natijasida o'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida ongli va faol ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy-maishiy vazifalarni hal etish malakalari tarkib topadi.

Hamkorlik pedagogikasi - an'anaviy o'qitishdan farq qilib, bola bilan do'stona munosabat o'rnatishga qaratiladi. "Men" o'rniga "Biz", ya'ni hamkorlikda - "subyekt" - "subyekt" munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. "Hamkorlikda ishlash" tamoyili o'quvchi shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O'quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilaniladi, so'ngra uni bajarish uchun bolada o'z kuchiga



ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, o'z hohish-irodasini yagona maqsadga - ta'lim olishga yo'naltiradi.

N.Dilovaning fikricha hamkorlikka asoslangan pedagogika o'qituvchi hamda o'quvchilar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo'lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo'ladi. Yangi maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyati ta'minlanadi. Bu maqsad - o'quvchilar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo'shimcha ijodiy natijani qo'lga kiritishga o'rgatishdan iborat. Hamkorlik texnologiyasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham hamkorlik texnologiyasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun o'quv materiallariga ishlov berishda yangi ta'lim metodlaridan foydalanadi. Shu maqsadda hamkorlik texnologiyasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi.

"Hamkorlik" tushunchasi zamonaviy insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogikaning yetakchi tushunchasini o'zida ifoda etadi. Hamkorlik - eng umumiy ma'noda kishilarning mehnatdagi o'zaro harakati, ya'ni ularning birgalikdagi faoliyatidir.

Hamkorlik o'zida birgalikdagi faoliyatning asosiy belgilarini aks ettiradi. Bularga maqsadning birligi, ishtirokchilarning birgalikda hamkorlikda ishlashi, yaxlit jarayonni alohida o'zaro aloqador qismlarga taqsimlanishi, ularning ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishi, individual faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqaralishi, yagona yakuniy natijaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Hamkorlikning pedagogik mohiyati S.L.Rubinshteynning faoliyat va shaxs rivojlanishining aloqadorligi haqidagi psixologik qonuni asosida yanada aniq mohiyat kasb etadi.

D.B.Elkonin va V.V.Davıdovlar maktabdagi o'zaro munosabatlarning barcha shakllari umumiy xarakter kasb etadi va nafaqat "bola-katta kishi", balki "bola-bola" munosabatlari orqali boshqariladi. Shuning uchun uyg'un xulq-avtor me'yoring samaradorligi yaxlitlikda sinfnigina emas, bir paytning o'zida guruhliy emotsional qo'llab-quvvatlashda aks etuvchi kichik guruhlarda ishlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. - T.: Fan va texnologiya, 2017.



2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000
4. Арефьева О.М. Особенности формирования коммуникативных универсальных учебных умений младших школьников / О.М.Арефьева / / Начальная школа плюс До и После. –2015.
5. Ahlidinov R.Sh. Maktabni boshqarish san’ati. – T.: Fan, 2006.
6. Dilova N.G‘. Boshlang‘ich ta’limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD). ... diss. – Nukus, 2018
7. Ergasheva X.Y. Teaching second language to Very Young Learners // Pedagogical Sciences/colloquim-journal#13(24) ISSN 2520-6990, December, 2018. – Pages 18-20. (Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrning xalqaro ilmiy-metrik ma’lumotlat bazalari: IndexCopernicus-ruyxat nomidagi birinchi havola raqami-23)
8. Ergasheva X.Y. Bolaga ikkinchi tilni o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyati// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.– №6.– Namangan, 2019. – B. 52-56. (13.00.00. №30)
9. Ergasheva X.Y. Ikkinchi tilni o‘rgatishni samarali tashkil etishda hissiy muhitning ahamiyati// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.– №4.– Namangan, 2020. – B. 449-453. (13.00.00. №30)
10. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children second languages at home// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2020. Maxsus son. – B. 407-410. (13.00.00. № 30)
11. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Дисс. ... докт. пед. наук.-Т.: 2004